

HARBIYLAR OILASIDA ROLLAR TAQSIMOTINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIGI MAVZUSIDAGI DISSERTATSIYA ASOSIDA ILMIY MAQOLA

Mualliflar: **Akramov Mirmuhsin Rustamovich** – DSc,
“Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrası professori,

Turgunjonova Nozimaxon O‘tkir qizi

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Psixologiya yo‘nalishi, magistratura 1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada harbiy xizmatchilar oilalarida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot oila psixologiyasi va ijtimoiy rollar nazariyasi asosida olib borilgan. Unda harbiy muhitda xizmat qiluvchi erkaklar va ularning turmush o‘rtoqlari o‘rtasidagi oilaviy rollarning shakllanishi, gender ustanovkalarining o‘zgarishi hamda harbiy hayotning psixologik bosimlari oilaviy tizimdagi rollarga qanday ta’sir ko‘rsatishi empirik tarzda o‘rganilgan.

Tadqiqot oila psixologiyasi, shaxslararo munosabatlar psixologiyasi va ijtimoiy rollar nazariyasi (J.Mid, T.Parsons, Yu.E.Alyoshina, L.Ya.Gozman va boshqalar) asosida olib borilgan bo‘lib, harbiy muhitning oilaviy rollarga ko‘rsatadigan psixologik ta’sir mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy oila, rollar taqsimoti, ijtimoiy-psixologik moslashuv, gender identifikatsiya, oilaviy munosabatlar, harbiy muhit.

SCIENTIFIC ARTICLE BASED ON THE DISSERTATION ON THE SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE DISTRIBUTION OF ROLES IN THE MILITARY FAMILY

Abstract: This article analyzes the socio-psychological characteristics of the distribution of roles in the families of military personnel from a psychological perspective.

The study was conducted on the basis of family psychology and the theory of social roles. It empirically studied the formation of family roles between men serving in a military environment and their spouses, changes in gender attitudes, and how the psychological pressures of military life affect roles in the family system.

The study was conducted on the basis of family psychology, the psychology of interpersonal relationships, and the theory of social roles (J.Mead, T.Parsons, Yu.E.Alyoshina, L.Ya.Gozman, etc.) and aimed at identifying the mechanisms of the psychological impact of the military environment on family roles.

Keywords: military family, distribution of roles, socio-psychological adaptation, gender identity, family relationships, military environment.

ASKERİ AİLEDE ROL DAĞILIMININ SOSYAL PSİKOLOJİK ÖZELLİKLERİ ÜZERİNE TEZ ÜZERİNE BİLİMSEL MAKALE

Özet: Bu makale, askeri personelin ailelerindeki rol dağılımının sosyo-psikolojik özelliklerini psikolojik bir bakış açısıyla incelemektedir. Çalışma, aile psikolojisi ve sosyal rol teorisi temelinde yürütülmüştür. Çalışmada, askeri bir ortamda görev yapan erkekler ile eşleri arasındaki aile rollerinin oluşumu, cinsiyete ilişkin tutumlardaki değişimler ve askeri yaşamın psikolojik baskılarının aile sistemindeki rolleri nasıl etkilediği ampirik olarak incelenmiştir.

Araştırma, aile psikolojisi, kişilerarası ilişkiler psikolojisi ve toplumsal rol kuramı (J.Mead, T.Parsons, Yu.E.Alyoshina, L.Ya.Gozman vb.) temel alınarak yürütülmüş olup, askeri ortamın aile rolleri üzerindeki psikolojik etki mekanizmalarını belirlemeyi amaçlamıştır.

Anahtar kelimeler: askeri aile, rol dağılımı, sosyo-psikolojik uyum, cinsiyet kimliği, aile ilişkileri, askeri ortam.

Kirish

Oila — inson hayotining eng muhim ijtimoiy-psixologik maktabi bo‘lib, unda shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari, axloqiy me‘yorlari va ijtimoiy xulq-atvori shakllanadi. Oila inson hayotining barqarorligini ta‘minlaydigan, jamiyatning asosiy hujayrasi sifatida shaxslararo munosabatlarning eng tabiiy shaklini ifodalaydi. Shu sababli, oila tizimidagi har qanday psixologik o‘zgarish jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, kasbiy faoliyat turi bilan bog‘liq ijtimoiy omillar, xususan harbiy xizmat sharoiti, oilaviy tizimga o‘ziga xos ta‘sir ko‘rsatadi.

Harbiy xizmatning mohiyati intizom, mas‘uliyat, tezkorlik, xavf va stress kabi psixologik omillar bilan belgilanadi. Harbiy xizmatchi o‘z faoliyati davomida doimiy ravishda psixologik zo‘riqish holatida bo‘ladi. Bu holat nafaqat shaxsiy, balki oilaviy hayotda ham o‘z aksini topadi. Uzoq muddatli safarlar, xizmatdagi noaniqlik, ijtimoiy rollarning qattiq chegaralanganligi, turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi vaqtinchalik ajralish holatlari oiladagi psixologik muvozanatga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, harbiy oilalarda rollar taqsimoti, hissiy qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro ishonch va ijtimoiy moslashuv masalalarini ilmiy asosda o‘rganish zaruriyati yuzaga kelgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “Kuchli oila — kuchli jamiyat” tamoyili mamlakatda oila institutini mustahkamlash, ayniqsa, harbiy xizmatchilar oilalarining ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlanishini davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylantirdi. Bundan tashqari yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda harbiy xizmatchilar oilalari bilan ishlash, ularning oilalarini mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning oilalarida sog‘lom muhitni qaror toptirish, oilaviy munosabatlarni ijtimoiy-psixologik, huquqiy jihatdan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishga alohida e‘tibor qaratilib, huquqiy-me‘yoriy asoslari yaratildi.¹ Harbiy sohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, jumladan, harbiylarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, xizmat sharoitlarini yaxshilash, ularning ma‘naviy-psixologik tayyorgarligini oshirish bilan bir qatorda, oilaviy hayotni mustahkamlashni ham nazarda

¹ O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a‘zolari bilan ishlash tizimining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.10.2022 yildagi 590-son.

tutadi. Zero, harbiy xizmatchining xizmatdagi samaradorligi, motivatsiyasi va ruhiy barqarorligi, ko'p jihatdan, uning oilasidagi emotsional muhit va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga bog'liqdir.

So'nggi yillarda oila psixologiyasi sohasida o'tkazilgan tadqiqotlar oilaviy rollar tizimining shaxslararo munosabatlarda, shaxsning moslashuvchanligida va ijtimoiy faolligida muhim rol o'ynashini ko'rsatmoqda (M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, Yu.E.Alyoshina, L.Ya.Gozman). Ularning tadqiqotlarida oilaviy rollar — bu faqatgina maishiy vazifalarning bo'linishi emas, balki o'zaro mas'uliyat, muloqot va hissiy muvozanatni ifodalovchi psixologik tizim ekani ta'kidlanadi. Biroq harbiy oilalarda bu jarayon yanada murakkab tus oladi. Chunki bunday oilalarda xizmat sharoitidan kelib chiqadigan stress, vaqt cheklovlari va muloqotning sustlashuvi natijasida er-xotin o'rtasidagi hissiy aloqa, ishonch va psixologik barqarorlik sinovdan o'tadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, harbiy oilalardagi rollar tizimi hali ham psixologiya fanida to'liq o'rganilmagan sohalardan biridir. Harbiy oilalarda er-xotin rollari o'rtasidagi muvozanat, gender ustanovkalarining qayta shakllanishi, shaxsiy va ijtimoiy moslashuv jarayonlari empirik tadqiqotlar orqali etarlicha yoritilmagan. Shu bois, mazkur tadqiqot harbiy oilalarda rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash, ularning barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni ochib berish, shuningdek, gender rollar transformatsiyasini tahlil qilishga qaratilgan.

Oila – inson hayotining eng muhim ijtimoiy tizimi bo'lib, u shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviy barkamolligi va psixologik barqarorligini ta'minlaydi. Ayniqsa, oila jamiyatda insonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, mehr, hurmat va ishonch munosabatlarini shakllantiruvchi asosiy muhit sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, oiladagi o'zaro munosabatlar, rollar tizimi va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish bugungi psixologiya fanining eng muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Harbiy xizmat sharoitida faoliyat yuritayotgan shaxslarning oilaviy hayoti esa o'ziga xos murakkabliklarga ega. Harbiy kasbning ijtimoiy mohiyati, ya'ni intizom, qat'iylik, doimiy xavf, mas'uliyat, uzoq muddatli xizmat safarlari va oiladan vaqtinchalik ajralish holatlari, harbiy xizmatchining o'z kasbiga sadoqati bilan bir qatorda, oiladagi hissiy

barqarorlikka, er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro tushunishga va rollar muvozanatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda harbiy oilalar o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik muhitga ega bo‘lib, unda rollar tizimi harbiy faoliyatning tashkiliy, ma’naviy va hissiy bosimi bilan uzviy bog‘lanadi.

Oila institutining mustahkamligi davlat barqarorligining ham poydevoridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “Kuchli oila – kuchli jamiyat” tamoyili mamlakatda oilaviy qadriyatlarni, ayniqsa harbiy xizmatchilar oilalarini ijtimoiy va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Bugungi kunda harbiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, harbiylarning moddiy ta’minotini yaxshilash, xizmat sharoitlarini modernizatsiya qilish, ularning psixologik tayyorgarligini oshirish bilan bir qatorda, harbiy oilalarning ijtimoiy himoyasi va psixologik farovonligini ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi.

Harbiy oilalarda rollar taqsimoti muammosi nafaqat ijtimoiy, balki psixologik nuqtai nazardan ham dolzarbdir. Chunki harbiy xizmatning o‘ziga xos talablari oilaviy rollarning qat’iy belgilanishini talab qiladi. Bunda erkak – xizmatdagi mas’uliyatli, intizomli, rahbar shaxs sifatida oilada ham etakchi rolni egallashga intiladi. Shu bilan birga, u ko‘p hollarda oiladan uzoqda bo‘lishi natijasida turmush o‘rtoqlar o‘rtasida emotsional masofalanish, rollarning qayta taqsimlanishi va hissiy muvozanatning buzilishi kuzatiladi. Ayollar esa bunday sharoitda oila barqarorligini saqlab qolish, farzand tarbiyasi, hissiy qo‘llab-quvvatlash kabi rollarni bajarib, psixologik jihatdan yanada moslashuvchanlikni namoyon etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, harbiy oilalarda rollar tizimi, gender rollarning o‘zgarishi, hissiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy-psixologik moslashuv masalalari hozirgi kungacha etarli darajada chuqur ilmiy tahlil qilinmagan. Ilmiy manbalarda, asosan, fuqarolik oilalaridagi rollar tizimi va shaxslararo munosabatlar o‘rganilgan bo‘lsa-da, harbiy oilalarning psixologik muhitini o‘ziga xos ijtimoiy tizim sifatida o‘rganishga kam e’tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, harbiy oilalarda kuzatiladigan stress, hissiy tanglik, ijtimoiy bosim, vaqt va muloqot cheklovlari oilaviy rollarning o‘zaro muvofiqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, er-xotin o‘rtasidagi hissiy aloqaning sustlashuvi, gender ustanovkalarining o‘zgarishi, ba’zan esa rollarning disbalansi (muvozanatsizligi) yuzaga keladi. Bu holat harbiy oilalarda ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonini murakkablashtiradi va oila barqarorligiga xavf tug‘diradi. Shu sababli, bunday oilalardagi rollar taqsimoti tizimini, ularning ijtimoiy-psixologik asoslarini, moslashuv mexanizmlarini va gender o‘zgarishlarni ilmiy asosda o‘rganish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

O‘zbekistonlik psixolog olimlar — M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G‘.B. Shoumarov, N.A.Sog‘inov va boshqalar — milliy oila modelida psixologik barqarorlik, shaxslararo muloqot va rollar tizimi masalalarini keng yoritganlar. Biroq ularning tadqiqotlari asosan fuqarolik oilalarini qamrab olgan. Harbiy oilalar muhitida esa bu jarayon boshqa ijtimoiy omillar — harbiy intizom, ijtimoiy maqom, ijtimoiy bosim, kasbiy stress — bilan boyigan. Shu bois, bu sohaga oid milliy tadqiqotlarning etishmasligi, ayniqsa, harbiy oilalarda rollar tizimining shakllanishi, gender moslashuv va ijtimoiy psixologik qo‘llab-quvvatlash masalalarini o‘rganishga ehtiyoj yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning dolzarbligi yana shundaki, bugungi kunda jamiyatda gender tenglik, oilaviy hamkorlik va psixologik salomatlik masalalariga e’tibor kuchaygan bir davrda, harbiy oilalar bu jarayonning o‘ziga xos modelini namoyon etmoqda. Harbiy oilalarda erkaklar va ayollarning rollari nafaqat biologik yoki an’anaviy jihatdan, balki ijtimoiy vazifalar orqali ham belgilangan. Bu holat gender rollarning qayta shakllanishiga, ayollarning androginiya xususiyatlarini kuchaytirishiga va oilaning umumiy moslashuv tizimiga olib keladi. Shu bilan birga, bu o‘zgarishlarning ijobiy yoki salbiy oqibatlarini aniqlash, ularni psixologik boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifadir.

Shunday qilib, mazkur tadqiqotning dolzarbligi harbiy oilalarda rollar tizimining shakllanishi, ijtimoiy-psixologik moslashuv mexanizmlari, gender identifikatsiya jarayonlari va oilaviy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga qaratilganligida

namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari harbiy oilalar psixologiyasini yanada chuqurroq o‘rganish, psixologik maslahat tizimlarini takomillashtirish, oilaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda harbiy sohada faoliyat yuritayotgan shaxslar va ularning oila a‘zolariga amaliy yordam ko‘rsatish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi.

Tadqiqotning maqsadi — harbiy xizmatchilar oilalarida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish, rollarning genderga xos namoyon bo‘lishi, moslashuv darajasi va oilaviy barqarorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, harbiy xizmatning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik sharoitlari (intizom, mas’uliyat, stress, vaqt cheklovlari va xavf) oilada rollar taqsimotini qat’iylashtiradi; bu esa oiladagi hissiy muhit, er-xotin o‘rtasidagi muloqot sifati va gender moslashuv darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar harbiy oilalarda rollar muvofiqligi va hissiy qo‘llab-quvvatlash yuqori bo‘lsa, bu oila psixologik barqarorlikni ta’minlaydi; aks holda, rollarning disbalansi va gender stereotiplarning kuchayishi nizolar, hissiy sovuqlik va ijtimoiy chetlashuvga olib keladi.

Tadqiqotning nazariy asosini oila psixologiyasi va ijtimoiy rollar nazariyasi tashkil etadi. Mazkur nazariy yondashuvlar J.Midning “Rol o‘zlashtirish” konsepsiyasi, T.Parsonsning “Ijtimoiy tizim” nazariyasi, shuningdek, Yu.E.Alyoshina, L.Ya.Gozman va E.M.Dubovskayaning “Oilada rollar taqsimoti” modeli asosida boyitilgan. O‘zbekistonlik olimlar — M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G‘.B.Shoumarov — milliy oilaning psixologik xususiyatlarini o‘rganish orqali ijtimoiy muhit, an’ana va gender munosabatlarning rol tizimiga ta’sirini tahlil qilganlar. Ularning yondashuvlari ushbu tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar: Mazkur tadqiqotning metodologik va metodik asoslari **oil**a psixologiyasi hamda **ijtimoiy rollar nazariyasiga** tayangan. Ushbu nazariy yo‘nalishlar harbiy xizmatchilar oilalarida shaxslararo munosabatlarni, rollar tizimini va gender o‘zgarishlarning psixologik mexanizmlarini tushuntirish uchun konseptual asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotning nazariy poydevorini **J.Midning “Rol o‘zlashtirish”** konsepsiyasi va **T.Parsonsning “Ijtimoiy tizim”** nazariyasi tashkil etdi. J.Mid fikricha, inson jamiyatda o‘z rolini boshqalar bilan o‘zaro munosabat orqali o‘zlashtiradi, bu esa shaxsning ijtimoiylashuvi va o‘zini anglash jarayonida asosiy o‘rin tutadi. T.Parsons esa oilani jamiyatning ijtimoiy tizimidagi kichik, ammo muhim quyi tizim sifatida ko‘radi, unda har bir a‘zo o‘zining funksional rolini bajarish orqali tizim barqarorligini ta‘minlaydi.

Shuningdek, tadqiqotda **Yu.E.Alyoshina, L.Ya.Gozman va E.M.Dubovskaya** tomonidan ishlab chiqilgan **“Oilada rollar taqsimoti”** modeli metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Bu model oiladagi rollarning o‘zaro muvofiqligini, hissiy barqarorlikka va o‘zaro munosabatlarga ta‘sirini aniqlash imkonini beradi.

O‘zbekistonlik olimlardan **M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘ozievlarning** ishlari milliy kontekstdagi oilaviy psixologiyani tahlil qilishda asos bo‘ldi. Ularning tadqiqotlarida oiladagi rollar, shaxslararo muloqot, hissiy yaqinlik va gender munosabatlarning milliy an‘ana va qadriyatlar asosida shakllanishi chuqur yoritilgan.

Tadqiqot metodik jihatdan quyidagi usullar majmuasiga tayandi:

- **“Oilada rollar taqsimoti” metodikasi** (Yu.E.Alyoshina, L.Ya.Gozman, E.M.Dubovskaya) – er-xotin o‘rtasidagi rollarning muvofiqligi va ularning psixologik ta‘sirini aniqlash uchun;

- **“Oiladagi kutuvlar va da‘volar” testi** (A.N.Volkova) – oilada o‘zaro kutilmalar darajasini baholash uchun;

- **“Gender identifikatsiya” metodikasi** (S.Bem) – ayollarda androginiya darajasini va gender rollarning moslashuvchanligini aniqlash uchun;

- **Mualliflik so‘rovnomasi** – harbiy oilalarda rollar tizimi, hissiy aloqa va psixologik moslashuv xususiyatlarini o‘rganish maqsadida ishlab chiqilgan.

- Shunday qilib, tanlangan nazariy va metodik asoslar **harbiy oilalarda rollar tizimini kompleks psixologik tahlil qilish**, ijtimoiy va hissiy omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash hamda gender transformatsiyaning psixologik mexanizmlarini empirik tarzda o‘rganish imkonini berdi.

Tadqiqotning predmeti va obykti:

Harbiy xizmatchilar oilalarida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ularning shakllanishi, gender rollarning o'zgarishi, oila a'zolarining psixologik moslashuv darajasi va bu jarayonning oilaviy barqarorlikka ta'siridir. Tadqiqotda ayniqsa, harbiy muhitda xizmat qiluvchi erkaklar va ularning turmush o'rtoqlari o'rtasidagi rollar tizimi, gender ustanovkalarining transformatsiyasi hamda shaxslararo moslashuv mexanizmlarining psixologik asoslari tahlil qilinadi.

Shu orqali tadqiqot harbiy oilalarda er-xotinlar o'rtasidagi rollar muvozanatini, hissiy qo'llab-quvvatlash tizimini va oila barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillarni aniqlashga qaratilgan.

Farg'ona va Andijon viloyatlarida o'tkazilib, jami **384 nafar respondent** (harbiy oilalardan **196 nafar**, fuqarolik oilalaridan **188 nafar**) ishtirok etgan. Tanlovda yosh, jins, xizmat staji, farzandlar soni va yashash joyi kabi omillar inobatga olingan. Diagnostik jarayonda "**Oilada rollar taqsimoti**" (Alyoshina–Gozman–Dubovskaya), "**Oiladagi kutuvlar va da'volar**" (Volkova), "**Gender identifikatsiya**" (S.Bem) metodikalari qo'llanilib, natijalar Styudent t-mezoni, Pirson korrelyatsiyasi va faktor tahlili asosida statistik qayta ishlangan.

Tadqiqotning asosiy bosqichlari:

1. **Nazariy-metodologik tayyorgarlik (2021–2022-yillar).** Mavzuga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi, oila psixologiyasi va ijtimoiy rollar nazariyasi asoslari o'rganildi. Tadqiqotning maqsadi, farazi, obykti, predmeti va vazifalari aniqlanib, qo'llaniladigan psixodiagnostik metodikalar tanlandi.

2. **Empirik-tajriba bosqichi (2022–2023-yillar).** Farg'ona va Andijon viloyatlaridagi 384 nafar respondent ishtirokida amaliy tadqiqot o'tkazildi. "Oilada rollar taqsimoti", "Oiladagi kutuvlar va da'volar", "Gender identifikatsiya" testlari hamda muallif so'rovnomasi qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar Styudent t-mezoni, Pirson korrelyatsiyasi va faktor tahlili orqali qayta ishlanib, natijalar tahlil qilindi.

3. **Natijalarni umumlashtirish va joriy etish (2023–2024-yillar).** Tadqiqot xulosalari asosida harbiy oilalarda rollar tizimining psixologik modeli ishlab chiqildi,

metodik tavsiyalar yaratildi va “Ijtimoiy psixologiya” hamda “Oila psixologiyasi” fanlari o‘quv jarayoniga joriy etildi.

Qo‘llanilgan metodlar va psixodiagnostik vositalar:

Tadqiqotda harbiy xizmatchilar oilalarida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan **kompleks psixologik tadqiqot usullari** qo‘llanildi. Metodikalar harbiy muhit sharoitida oila a‘zolarining rollar tizimini, hissiy holatini va gender identifikatsiya darajasini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotda quyidagi metod va psixodiagnostik vositalar qo‘llanildi:

1. **“Oilada rollar taqsimoti” metodikasi** – (Yu.E.Alyoshina, L.Ya.Gozman, E.M.Dubovskaya) – er-xotin o‘rtasidagi rollarning taqsimlanish darajasini, ularning o‘zaro muvofiqligini, hissiy va ijtimoiy jihatdan qay tarzda aks etishini aniqlashga qaratilgan.

2. **“Oiladagi kutuvlar va da‘volar” testi** – (A.N.Volkova) – turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi o‘zaro kutuvlar, talablar va da‘volar o‘rtasidagi farqni, shuningdek, ularning oila barqarorligiga ta‘sirini o‘lchash uchun ishlatildi.

3. **“Gender identifikatsiya” metodikasi** – (S.Bem) – erkaklik, ayollik va androginiya darajasini aniqlash, shuningdek, gender rollarning moslashuv darajasini baholash imkonini berdi.

4. **Muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Oilalarda rollar taqsimoti haqidagi ijtimoiy tasavvurlar” so‘rovnomasi** – harbiy oilalarda ijtimoiy va psixologik tasavvurlar, rollar o‘rtasidagi muvofiqlik, hissiy hamkorlik va psixologik moslashuv darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘ldi.

5. Olingan ma‘lumotlar **matematik-statistik tahlil** usullari – Styudent T-mezoni, Pirson korrelyatsiyasi koeffitsienti va faktor tahlili yordamida qayta ishlanib, empirik natijalar asosida harbiy oilalar va fuqarolik oilalari o‘rtasidagi farqlar aniqlab berildi.

Tadqiqotning ilmiy farazi quyidagicha shakllantirildi:

“Harbiy xizmatchilar oilalarida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, avvalo, harbiy xizmat sharoitining qat‘iy intizomi, mas‘uliyati va emotsional bosimiga

bog‘liq bo‘lib, bu holat oiladagi rollarning muvofiqligi, hissiy barqarorlik va gender moslashuv darajasini belgilaydi.”

Boshqacha aytganda, harbiy muhitda xizmat qiluvchi erkaklarning kasbiy talablari va psixologik xususiyatlari, ularning oiladagi etakchilik roli va mas’uliyat darajasini oshiradi, **ayollarda esa moslashuvchanlik va androginiya xususiyatlari** shakllanadi. Natijada, harbiy oilalarda rollar tizimi an’anaviy modeldan farqli ravishda, **kasbiy va hissiy tajribaning uyg‘unlashuvi asosida** rivojlanadi.

Agar oilada er-xotin o‘rtasidagi **rollar o‘zaro muvofiqlikda taqsimlansa**, bu oila psixologik barqarorlik, hissiy yaqinlik va ijtimoiy birdamlikni ta’minlaydi. Aksincha, harbiy xizmatdagi stress, muloqot cheklovlari yoki hissiy sovuqlik **rol disbalansiga** olib kelib, oila ichidagi nizolar va hissiy tanglikni kuchaytiradi.

Tadqiqotning metodologik yondashuvlari

Metodologik jihatdan tadqiqot quyidagi asosiy yondashuvlarga tayangan:

- **Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv** – har bir oila a‘zosi (xususan, harbiy erkak va uning turmush o‘rtog‘i) o‘zining psixologik tajribasiga, xizmat sharoitiga va hissiy ehtiyojlariga ko‘ra rollarni turlicha idrok etadi.

- **Tizimli yondashuv** – “harbiy oila” ijtimoiy tizim sifatida qaraladi, unda har bir a‘zo (er, xotin, farzand) o‘z rolini tizimdagi o‘zaro ta’sir, mas’uliyat va hissiy bog‘liqlik orqali bajaradi.

- **Gender-psixologik yondashuv** – harbiy sharoitda erkak va ayol rollarining o‘zgarishi, androginiya va gender identifikatsiyaning milliy madaniyat, an’ana hamda ijtimoiy me‘yorlar asosida tahlil qilinadi.

- **Etno-psixologik yondashuv** – o‘zbek oilasining milliy qadriyatlari, oilaviy birdamlik, hurmat va sadoqat kabi tamoyillar harbiy oilalardagi rollar tizimi shakllanishida asosiy psixologik omil sifatida inobatga olingan.

Tadqiqot etikasi

Tadqiqot jarayonida **psixologik tadqiqot etikasiga** qat’iy rioya qilindi. Ishtirokchilarning huquqlari, shaxsiy daxlsizligi va ma’lumotlar maxfiyligi to‘liq ta’minlangan. Tadqiqot **ixtiyoriy ishtirok etish** tamoyili asosida olib borilgan —

respondentlar tadqiqot maqsadi bilan tanishtirilib, ularning roziligi olingan holda so‘rov va testlar o‘tkazilgan. Yig‘ilgan ma‘lumotlar **anonim shaklda** qayd etildi va faqat ilmiy tahlil maqsadida foydalanildi. Tadqiqotchi neytral va xolis pozitsiyada bo‘lib, ishtirokchilarning hissiy holati, madaniy qadriyatlari va shaxsiy hayotiga hurmat bilan yondashgan.

Metodik natijadorlik va ishonchlilik

Tadqiqotda qo‘llanilgan psixodiagnostik vositalarning **psixometrik ishonchliligi** α krombax koeffitsienti yordamida tekshirildi va **0.79–0.86** oralig‘ida natija ko‘rsatdi. Bu ko‘rsatkich metodikalarning ichki izchilligi, barqarorligi va natijalarning takroriy o‘lchovlarda ham ishonchli ekanini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, tanlangan metodlar — “Oilada rollar taqsimoti” metodikasi, “Oiladagi kutuvlar va da‘volar” testi, “Gender identifikatsiya” metodikasi hamda muallif so‘rovnomasi — harbiy oilalarda rollar tizimini, gender o‘zgarishlarni va psixologik moslashuvni **ilmiy asosda kompleks o‘rganish imkonini berdi**.

Metodologiya oila muhitining psixologik tarkibini chuqur tahlil qilish, rollar o‘rtasidagi muvofiqlik va hissiy barqarorlik darajasini empirik jihatdan aniqlash imkonini yaratdi.

Olingan natijalar. Empirik tadqiqot natijalari **harbiy xizmatchilar oilalarida rollar taqsimoti** ko‘p omilli psixologik tizim ekanini ko‘rsatdi. U oilaning hissiy barqarorligi, er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, muloqot ochiqligi va xizmat sharoitining bosim darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Tadqiqotda jami **384 nafar respondent** ishtirok etdi (196 nafari harbiy oilalardan, 188 nafari fuqarolik oilalardan).

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra:

• **Harbiy oilalarning 72 foizida** rollar taqsimoti aniq belgilangan, erkaklar rahbarlik va mas‘uliyat rolini bajargan, ayollar esa hissiy barqarorlik va moslashuvchanlikni ta‘minlagan.

• **Fuqarolik oilalarida esa 58 foiz hollarda** rollar o‘zaro almashinuvchan, ya‘ni vaziyatga qarab er yoki xotin etakchilik rolini bajargan.

• **Harbiy oilalarda androginiya darajasi** (S.Bem metodikasi bo'yicha) o'rtacha **0.67** koeffitsientni tashkil etgan bo'lib, bu ayollarda gender moslashuvchanlikning kuchli ekanini bildiradi.

• **Rol muvofiqligi** va **oilaviy barqarorlik** o'rtasida **musbat korrelyatsiya** ($r = +0.73$; $p < 0.01$) aniqlangan.

• Aksincha, **rol disbalansi** bilan **hissiy sovuqlik** o'rtasida **salbiy bog'liqlik** ($r = -0.69$; $p < 0.01$) qayd etilgan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, **xizmatdagi bosim darajasi yuqori bo'lgan oilalarda** hissiy yaqinlikning pasayishi, ayollarda charchoq va emotsional toliqish holatlari kuzatilgan. Bu oilalarda turmush o'rtoqlar o'rtasidagi muloqot kamroq, rollar muvozanati esa buzilgan.

Biroq, **xizmat va oilaviy rollar o'rtasida muvozanat saqlangan oilalarda**, ya'ni er-xotin o'zaro qo'llab-quvvatlovchi, "biz" hissiga ega oilalarda, psixologik barqarorlik yuqori bo'lgan. Ularning **81 foizida** ijobiy muloqot, o'zaro ishonch va hissiy uyg'unlik mavjudligi qayd etilgan.

Shuningdek, **tinch oilaviy muhitga ega respondentlar** (harbiy xizmat stressiga bardoshli) oilaviy nizolarni vaqtinchalik holat sifatida qabul qilgan va ularni murosa orqali hal etishga moyil bo'lganlar. Aksincha, **notinch muhitdagi respondentlar** nizolarni doimiy, echimsiz holat sifatida ko'rgan.

Jinsiy farqlar ham aniqlandi:

• **Ayollar** rollar tizimida hissiy barqarorlik, moslashuv va farzandlar bilan kommunikatsiyani saqlashga ko'proq e'tibor bergan.

• **Erkaklar** esa xizmatdagi mas'uliyat tufayli ko'pincha oilada nazorat va qaror qabul qilish funksiyalarini bajarishga intilgan.

Bu natijalar **Yu.E.Alyoshina, L.Ya.Gozman va E.M.Dubovskayaning** "Oilada rollar taqsimoti" modelini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Unga ko'ra, rollar tizimidagi muvozanat ijtimoiy moslashuv, hissiy barqarorlik va kommunikatsiya madaniyatiga bevosita bog'liqdir.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari harbiy oilalarda psixologik barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillar — **rol muvofiqligi, hissiy yaqinlik, muloqot sifati va gender moslashuvchanlik** ekanini ko'rsatdi. Bu natijalar harbiy psixologik xizmat va oila maslahati amaliyotida **diagnostik hamda korreksion** dasturlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Harbiy xizmatchilar oilalarida rollar taqsimoti o'ziga xos ijtimoiy-psixologik tizim bo'lib, u harbiy xizmat sharoitining qat'iy intizomi, kasbiy mas'uliyat darajasi va emotsional bosim omillari bilan bevosita bog'liq. Harbiy muhit oilada rollarning aniq belgilanishiga, ierarxik tuzilmaning shakllanishiga va gender rollar transformatsiyasiga sabab bo'ladi.

2. Erkaklar oilada, odatda, etakchilik, himoyachilik va mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan bo'lsalar, **ayollar** hissiy barqarorlikni saqlash, oilaviy muhitni uyg'unlashtirish va farzandlar bilan muloqotda muvozanatni ta'minlash rolini bajaradilar. Bu holat ayollarda **androginiya xususiyatlari** – ya'ni erkak va ayol xulq xususiyatlarining uyg'unlashuvi – darajasining oshishiga olib kelgan.

3. Tadqiqot natijalariga ko'ra, **rol muvofiqligi va oilaviy barqarorlik** o'rtasida sezilarli musbat korrelyatsiya ($r = +0.73$; $p < 0.01$) mavjud. Shu bilan birga, **rol disbalansi** bilan **hissiy sovuqlik** o'rtasida salbiy bog'liqlik ($r = -0.69$; $p < 0.01$) aniqlangan. Bu natijalar rollar tizimidagi muvofiqlik oila psixologik barqarorligini belgilovchi asosiy omil ekanini tasdiqlaydi.

4. Harbiy xizmatdagi stress, vaqt cheklovlari va uzoq safarlar oila a'zolari o'rtasidagi muloqot intensivligini kamaytirib, hissiy sovuqlikka olib keladi. Ammo rollar tizimi uyg'un tashkil etilgan, "biz" hissi kuchli oilalarda bu bosimlar kompensatsiya qilinadi, oila psixologik jihatdan bardoshli bo'lib qoladi.

5. Tadqiqot harbiy oilalarda **gender identifikatsiya jarayonining o'ziga xosligini** aniqladi. Ayollarda moslashuvchanlik, sabr-toqat va ijtimoiy faollik darajasi oshgani holda, erkaklarda xizmat intizomi tufayli nazorat va mas'uliyat hissi kuchli saqlanadi

6. Harbiy oilalarning ijtimoiy-psixologik barqarorligi nafaqat moddiy ta'minot yoki tashkiliy sharoitlarga, balki **hissiy yaqinlik, o'zaro ishonch, muloqot sifati va rollar o'zaro muvofiqligiga** ham bog'liq.

7. Tadqiqot natijalari asosida **“Harbiy oilalarda rollar tizimining psixologik modeli”** ishlab chiqildi. Ushbu model rollar tizimidagi ijtimoiy, hissiy va gender komponentlarning o'zaro ta'sirini ko'rsatadi hamda oila psixologiyasi faniga yangi nazariy yondashuv sifatida kiritiladi.

Mazkur natijalar **harbiy psixologiya, oila maslahati, ijtimoiy moslashuv va psixokorreksion dasturlar** uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, harbiy xizmatchilar oilalarida psixologik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash tizimining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.10.2022 yildagi 590-son.
2. Волкова А.Н. Методика определения ожиданий и претензий в семье. – М.: МГУ, 1991.
3. Alyoshina Yu.E., Gozman L.Ya.Dubovskaya, E.M. Половое взаимодействие в семье: Психологическое исследование. – М.: МГУ, 1987.
4. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект-Пресс, 1998.
5. Davletshin M.G. Psixologiya oilaviy hayotining ba'zi jihatlari. – Toshkent: Fan, 1992.
6. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.
7. Shoumarov G'.B. Oilada shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2015.
8. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2002.
9. Sog'inov N.A. Oila muhitida shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari. – Toshkent: TDPU, 2019.
10. Jalolova Mohigul Odiljon Qizi “Harbiylar oilasida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligi” – Toshkent: 2024.